

**XORIJ TA'LIMI TAJRIBASIDAN
FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI****O'rinova O'razgul Boyqobil qizi***O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti stajor o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan ilg'or xorij tajribalari va texnologiyalari haqida va ulardan oqilona foydalanish haqidab so'z yuritiladi.*

Kalit so'zi : *Innovatsion g'oya, yaponiya texnologiyasi, koreya texnologiyasi, Montessori texnologiyasi, Italiya texnologiyayi, pedagogik kadrlar, maktabgacha ta'limni takomillashtirish to'g'risidagi farmoishlar.*

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim sohasi boshqa sohalar kabi eng rivojlanib borayotgan sohalardan biridir. Ushbu sohada bolalarga ta'lim berishda eng ilg'or texnologiyalardan foydalanib kelinmoqda. Shulardan eng ommalashganlari Koreya va Italiya texnologiyalari hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar o'zining samaradorligi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda M. Montessori tomonidan ishlab chiqilgan — Montessori texnologiyasi|| o'zining ko'plab yutuqlari bilan yosh pedagogik kadrlarni jalb qiladi. Ushbu texnologiya nafaqat sog'lom bolalar balkim sog'lig'ida muammosi bo'lgan bolalar uchun ham qo'llashda ko'plab afzalliklarni yaratadi. Chet el texnologiyalaridan foydalangan holda ish hujjatlarini yuritish, bugungi kun talablariga mos keladigan mashg'ulotlarni yaratish, shu bilan birgalikda pedagoglar uchun qulayliklarni yaratish ham muhim omil sanaladi. Shu sababli hozirda maktabgacha ta'lim tizimida tubdan takomillashtirish ishlari olib borilmoqda. Shu jumladan Prizedentimizning — 2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida|| gi farmoishi shulardan biri hisoblanadi. Hozirda Yaponiya mamlakatining texnologiyalaridan ham oqilona foydalanish keng yo'lga qo'yilgan. Yaponiya texnologiyasidagi mehnatsevarlik va ishbilarmonligi bizning pedagoglarimiz uchun qulay vosita bo'lib hizmat qiladi. Dunyodagi barcha eng ilg'or texnologiyalarning yaratuvchilari bo'lgan yapon xalqi tomonidan ishlab chiqilgan maktabgacha ta'lim muassasalari uchun qo'llanmalardan hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida keng foydalaniladi. Yapon pedagoglarining o'quv metodik majmualari, qo'llanmalari va

o'quv hujjatlari biz uchun qulay vosita bo'lib kelmoqda. Ushbu qo'llanmalarga o'zimizning milliylik ruhini qo'shgan holda ularni ijodkorlik bilan o'zgartirish kiritgan holda foydalanish biz va bizning avlodlarimiz uchun ham foydali hisoblanadi. Zamonaviy ped texnologiyalar nafaqat chet el texnologiyasiga balkim o'zimizning azaliy urf-odatlarimizga ham, ota-bobolarimizdan qolgan me'roslar

yordamida ham ta'lim berish bizning maqsadimiz sanaladi. Zero ushbu usullar International Journal

yordamida bizdan avval yashab ijod etgan ota-bobolarimiz, buyuk siymolarimiz voyaga yetib kamol topishgan. Ular orasida buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino, so'z mulking sultoni Alisher Navoiy, buyuk jadidchi bobomiz Abdulla Avloniyilar ushbu milliy ta'lim va tarbiyaasosida voyaga yetishgan. Ularning ulkan merosi biz uchun va avlodlarimiz uchun katta meros sanaladi. Ularning o'rnakli hayoti biz uchun namuna hisoblanadi. Shu sababli ham chet el texnologiyalarini

olish bilan birgalikda o'z urf-odatlarimizni ham uyg'un holda qo'llash zarur. Bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri ham pedagogik texnologiyalardan unumli va samarali foydalanish hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda mamlakatimizda istiqloq yo'lidagi eng birinchi qadamlaridan biri ham ushbu texnologiyalarni yaxshi o'rgatish muhim omil sanaladi. Ushbu borasida Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning —Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz balkim bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalashni asosiy vazifa qilib olamiz|| degan so'zlari bizlarni kelajak uchun ulkan ishlar qilishga undaydi. Yurtimiz ta'lim tizimida ayniqsa, maktabgacha ta'lim sohasida keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirmoqda. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad — maktabgacha ta'lim faoliyatini tubdan yaxshilash, uning insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosda o'quv- tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks

yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishning muhim shartlaridan biri rivojlangan mamlakatlar maktabgacha ta'lim tajribalariga munosabatni tubdan o'zgartirishdan iborat ekanligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Bu tajribalarni sinchkovlik va qunt bilan o'rganish orqali biz ta'limda xato va yanglishishlardan, shubhali xulosalardan o'zimizni saqlashimizdan tashqari, ta'limtarbiyada qotib qolgan, eskirgan, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan ish shakli va uslublaridan tezroq xalos bo'lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ham ega bo'lamiz. Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarda ta'lim ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan- yilga oshib bormoqda. O'zbekiston jahon andozalariga mos keladigan ko'p bosqichli ta'lim tizimiga o'tmoqda. Biz foydalanadigan ta'lim texnologiyalari shaxsni rivojlanishiga, mustaqil ishlashga o'rgatishi zarur. Chet el tajribalarini o'rganib, ularni sharoitimizga moslab tatbiq qilish kerak. Davrlar o'tishi bilan insoniyat ehtiyoji kuchayib boradi. Bu ehtiyojlarni qondirish uchun

ta'lim tizimini mukammal va puxta reja asosida tashkil etishni talab etadi. Mamlakatni dunyodagi rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shishda uni ta'lim tizimini mukammal reja asosida tashkil etishni talab qildi. Har bir davlat va jamiyatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma'naviy yuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o`rin olishi - bilimli, yuqori intellektual salohiyatli,

qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarni mujassamlashtirgan yoshlarga bog`liq hisoblanib, vatan taqdiri uchun sitqi dildan xizmat qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o`qitishni sifatli va mazmun jihatdan yuqori pog`onalarga olib chiqish, avvalo, o`qituvchi va tarbiyachi murabbiylar zimmasiga sharafli va ayni paytda mas`uliyatli vazifani yuklaydi. Xalqaro tadqiqotlarga ko`ra,

agarda 2 – 7 yoshdagi bolaga eng kamida bir yil davomida haftasiga 9 soatdan 15 soatgacha ta'lim berilsa, uning salohiyati 100 foiz rivojlanish imkoniyatiga ega bo`ladi. Bundan ko`rinib turibdiki rivojlangan mamlakatlarda ta'limga bo`lgan e'tibor asosiy o`rinlarda turadi. Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan ona Vatanimiz O`zbekistonda farzand tarbiyasi eng dolzarb masala bo`lib qolmoqda. Farzandlarimizni tarbiyasida to`g`ri yo`lni tanlay olish ham juda mushkul masala.

Bunday mushkul masalani osonlik bilan samarali yechim topishimizda bizga xorij mamalakatlarining tajribalari, yo`lyo`riqlari ham qo`l keladi. Dunyo miqyosida bolalarni psixofiziologik, intellektual, ijodiy va shaxsiy salohiyatini oshirishga yo`naltirilgan kreativ texnologiyalarni rivojlantirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida shaxsga yo`naltirilgan innovatsion ta'lim muhitini tashkil qilish

hamda strategik boshqaruv tamoyillari asosida maktabgacha ta'limning sifat menejmenti mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda maktabgacha ta'limni boshqarishning axborot- metodik tizimini takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlarini diversifikatsiyalash, ta'lim-tarbiya jarayoniga axborot-

kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv va muammolivaziyatli o`qitish usullarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining kasbiy- innovatsion kompetentligini rivojlantirish va baholashning samarali shakl va metodlarini amaliyotga joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunga qadar mamlakatimizda har tomonlama yetuk, ma'naviyatli barkamol avlodni tarbiyalshga qaratilgan zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil qilish

bo`yicha juda ko`p chora tadbirlar amalga oshirilib kelmoqda. Ko`plab dunyo davlatlarning o`ziga xos madaniyati va rivojlanish yo`li bo`lishiga qaramay deyarli o`xshash bo`lgan ta'lim tizimidagi muammolarni hal qilib kelmoqdalar. Jumladan, maktabgacha ta'limda amalga oshirilayotgan ta'lim va tarbiya jarayonida samarali hamda innovatsion metodlarni ishlab chiqish, bolani garmonal, psixofiziologik va sotsiologik rivojlanishi, bolani madaniy- etnik tarbiyalanishini takomillashtirish,

uning salomatligi va yashash sharoitlarida sog'lom muhitni yaratish shular jumlasidandir. Rivojlangan mamlakatlarning maktabgacha ta'lim tizimlari ham o'ziga xos ravishda tuzilgan. Xorijiy davlatlardagi maktabgacha ta'limning asosiy ikki maqsadi bo'lib, ularning birinchisi bolalarga xorijiy tillarni o'qitish bo'lsa, ikkinchisi ularni jismonan, ruhan va aqlan sog'lom rivojlantirishdir. Filadelfiyaning

Inson potensialini (imkoniyatlarini) rivojlantirish institutining direktori Glen Domanning fikricha insoniyat bosh miyasining eng yuqori rivojlanish davri 3 yoshgacha bo'lgan davrini taqazo etar ekan. Ammo zamonaviy ta'lim International Journal of Education, Social Science & Humanities.

tizimlarining boshlanishi ushbu yoshning tugash vaqtiga ya'ni 3 yoshdan keyinga to'g'ri kelishi bizga ma'lum. 6 yoshdan keyin bilimlarni berilishi takrorlash jarayonini - talab qiladi, shuning uchun til o'rganishni maktabgacha yoshdan boshlagan ma'qul hisoblanadi. Hulosa qilib shuni aytish mumkinki, jahonda ta'lim sohasidagi innovatsion rivojlanish tendentsiyalariga mos ravishda maktabgacha ta'lim tizimini kompetentsiyaviy talablar asosida takomillashtirishga alohida

e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, YUNESKO tomonidan 2030 yilgacha belgilangan barqaror rivojlanish maqsadlarida bolalarda mustaqilijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan sifatli ta'lim xizmatlarini tashkil etish dolzarb vazifalar sifatida qayd etilgan. Xalqaro tajribalar maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayon samaradorligini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM o'qitish asoslarini joriy etish, ta'lim xizmatlarini diversifikatsiyalash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasida izlanishlar olib borayotgan olimlarimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biri, maktabgacha ta'lim tizimiga yangiliklar olib kirish bilan birgalikda jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatlari bilan yaqindan tanishishlari va ulardagi ilg'or usullarni o'rganishlari hamda ularni ilmiy asoslagan holda mamlakatimizdagi maktabgacha ta'lim tizimiga keng joriy etish orqali belgilangan vazifalarni talablar darajasida ado etilishiga hissa qo'shishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasida ham chet el ta'lim tizimidan na'muna olgan holda maktabgacha ta'lim tizimini yanada mukammal va sifatli tashkil etishimiz kerak.

Buning uchun eng birinchi o'rinda malakali kadrlarni tayyorlash zarur. Ta'lim tashkilotlarini innovatsion texnologiyalar bilan ta'minlab, bolalarga maktabgacha yoshdan boshlab innovatsion texnologiyalardan foydalanishni o'rgatib ularni mustaqil, o'ziga ishonadigan shaxs qilib tarbiyalashimiz kerak. Shundagina bizning mamlakatimizdan ham jahonga mashhur buyuk shaxslar, Gbn Sino, al-Beruniy, al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, Farobiy kabi ajdodlarimizga mos avlodlarni yetishtiramiz.

ADABIYOTLAR:

1. I.A Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" 2008

2. Quronov M. "Ma'naviy yuksalish yo'lida" 2008
3. Yo'ldoshev J.F "Uzluksiz ta'lim:Malaka oshirish muammolari va yechimlari".
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli farmoni